

HUDUDIY QURILISH KLASTERLARIDA KICHIK BIZNESNING ISHTIROKI VA INTEGRATSION ALOQALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Axmedova Nilufar Shuxaratovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
i.f.d., professor v.b.

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda hududiy qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlarining ishtiroki va integratsion aloqalar samaradorligi baholandi. Tadqiqot davomida klaster tarkibidagi kichik biznesning iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy natijalarga ta'siri tahlil qilindi. Integratsion aloqalarning vertikal, gorizontaal, diagonal hamda axborot almashinuvi shakllari o'rganildi. Qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlari son jihatidan ustun mavqega ega ekani, ularning iqtisodiy faolligi izchil oshib borgani aniqlandi. Muallif tomonidan Integratsion Aloqalar Samaradorligi Indeksi ishlab chiqildi va amaliy ma'lumotlar asosida baholandi. Natijalar klasterlar doirasida hamkorlikning rivojlanishi xarajatlar tejamkorligini, ish o'rinlari yaratishni va iqtisodiy samaradorlikni oshirganini ko'rsatdi. Tadqiqot hududiy qurilish klasterlarida kichik biznes integratsiyasini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirdi.

Kalit so'zlar: hududiy klaster, qurilish sanoati, kichik biznes, integratsion aloqalar, samaradorlik, subpudrat, iqtisodiy rivojlanish, IASI indeksi.

Аннотация

В данном исследовании была проведена оценка участия субъектов малого бизнеса и эффективности интеграционных связей в региональных строительных кластерах. В ходе исследования был проанализирован вклад малого бизнеса в экономические, организационные и социальные результаты кластерной деятельности. Были изучены вертикальные, горизонтальные, диагональные формы интеграции, а также механизмы обмена информацией. Результаты показали, что малые предприятия занимали ведущие позиции по численности участников кластеров и демонстрировали устойчивую динамику экономической активности. Автором был разработан Индекс эффективности интеграционных связей и апробирован на основе практических данных. Полученные результаты подтвердили, что развитие кооперации способствовало снижению затрат, созданию новых рабочих мест и повышению общей эффективности кластеров. Исследование сформировало практические рекомендации по совершенствованию интеграции малого бизнеса в региональных строительных кластерах.

Ключевые слова: региональный кластер, строительная отрасль, малый бизнес, интеграционные связи, эффективность, субподряд, экономическое развитие, индекс IASI.

Abstract

This study assessed the participation of small business entities and the effectiveness of integration linkages within regional construction clusters. The research

analyzed the contribution of small businesses to the economic, organizational, and social performance of cluster activities. Vertical, horizontal, diagonal integration forms and information-sharing mechanisms were examined. The findings revealed that small enterprises held a dominant position in terms of cluster membership and demonstrated steady growth in economic activity. An Integration Linkage Efficiency Index was developed and tested using practical data. The results showed that stronger cooperation increased cost efficiency, supported job creation, and improved overall cluster performance. The study confirmed the importance of integration mechanisms for enhancing the role of small businesses in construction clusters. Practical recommendations were formulated to strengthen cooperation and improve the effectiveness of regional construction cluster development.

Keywords: regional cluster, construction industry, small business, integration linkages, efficiency, subcontracting, economic development, IASI index.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida klasterlashuv tendensiyalari izchil rivojlanib, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, qurilish sohasida hududiy klasterlarni shakllantirish orqali resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish va innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida qurilish sanoatini modernizatsiya qilish hamda kichik biznes subyektlarini yirik investitsiya va infratuzilma loyihalariga keng jalb etish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022-2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekiston” taraqqiyot strategiyasida¹ qurilish sohasida raqobatbardosh muhitni shakllantirish, kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash hamda klasterlashgan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi hududiy qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlarining ishtiroki va ular oʻrtasidagi integratsion aloqalar samaradorligini ilmiy asosda baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlarining ishtiroki bosqichma-bosqich kengayib borayotgan boʻlsa-da, ularning yirik pudratchi kompaniyalar bilan hamkorlik munosabatlari integratsion aloqalar nuqtai nazaridan yetarli darajada oʻrganilmagan. Shu bilan birga, klaster ichidagi iqtisodiy, tashkiliy va texnologik aloqalarning samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi yagona va universal metodologik yondashuvning shakllanmaganligi ushbu yoʻnalishdagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshiradi. Mazkur holat qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini baholash, ularning klaster rivojlanishiga qoʻshayotgan hissasini aniqlash hamda integratsion

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy klasterlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va hududlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategik islohotlar klasterlashuv jarayonlarini rivojlantirish uchun qulay institutsional muhit yaratdi [1]. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Klaster nazariyasining ilmiy asoslari M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u hududiy klasterlarni o'zaro bog'liq korxonalar, ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va institutlarning geografik jihatdan birlashgan tizimi sifatida tavsiflagan [2]. Muallifning ta'kidlashicha, klasterlar innovatsiyalarni jadallashtiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi. Ushbu nazariya bugungi kunda sanoat va qurilish tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirishning metodologik asosi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Kichik biznesning klaster tizimidagi o'rnini H. Schmitz tomonidan ishlab chiqilgan jamoaviy samaradorlik konsepsiyasi orqali izohlangan [3]. Mazkur yondashuvga ko'ra, kichik korxonalar o'zaro hamkorlik va ixtisoslashuv asosida yirik korxonalarga xos iqtisodiy afzalliklarning muayyan qismini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday hamkorlik ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi hamda bozor imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qurilish sohasida klasterlashuv masalalari Vogl va Steane tomonidan o'rganilib, ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikning loyiha samaradorligiga sezilarli ta'siri asoslab berilgan [4]. Mualliflar qurilish klasterlarida subpudrat munosabatlari, resurslar almashinuvi va axborot oqimlarining samarali tashkil etilishi ishlab chiqarish natijalarini yaxshilashini ko'rsatganlar.

Postsovet mamlakatlari tajribasida qurilish klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari Ershova va Khalilova tomonidan tahlil qilingan [5]. Tadqiqot natijalari qurilish klasterlari hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil ekanligini tasdiqlagan.

O'zbekiston sharoitida qurilish sohasini klasterlashtirishning iqtisodiy jihatlari Ergashev tomonidan o'rganilgan bo'lib, unda qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishida klaster yondashuvining ahamiyati asoslangan [6]. Muallif qurilish korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiya va integratsiya aloqalarini kengaytirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlagan.

Hududiy klasterlar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik Yusupov va Nazarov tadqiqotlarida ham yoritilgan [7]. Ularning xulosalariga ko'ra, klasterlashuv hududlarning investitsion jozibadorligini oshiradi, ishlab chiqarish zanjirlarini takomillashtiradi va kichik biznesning iqtisodiy faolligini rag'batlantiradi.

Qurilish klasterlarida korporativ boshqaruv masalalari Rashidova tomonidan tahlil qilinib, samarali boshqaruv mexanizmlari klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashi va iqtisodiy natijadorlikni oshirishi asoslangan [8]. Mazkur yondashuv klaster ichidagi institutsional munosabatlarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholangan.

Qurilish sohasi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar mamlakatda qurilish hajmi, investitsiyalar va kichik biznes faolligining izchil o'sib borayotganini ko'rsatmoqda [9]. Ushbu tendensiyalar qurilish klasterlarini rivojlantirish va ularda kichik biznesning ishtirokini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Hududiy klasterlar faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari Enright tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, muallif klasterlar hududiy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida muhim institut sifatida xizmat qilishini ta'kidlagan [10]. Uning fikricha, klasterlar korxonalar o'rtasidagi bilim almashinuvini kuchaytiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda hududiy qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlarining ishtiroki va integratsion aloqalar samaradorligini baholash uchun kompleks tahlil yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida 2022-2025-yillarda faoliyat yuritgan qurilish klasterlari tanlandi. Ma'lumotlar rasmiy statistika, klaster ishtirokchilari hisobotlari hamda 186 nafar tadbirkor va 47 nafar soha mutaxassisi ishtirokidagi ekspert so'rovlari asosida shakllantirildi. Tahlil jarayonida iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Kichik biznes subyektlari soni, klaster aylanmasidagi ulushi, subpudrat shartnomalari hajmi, hamkorlik davomiyligi, xarajatlar tejamkorligi va yaratilgan ish o'rinlari asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Integratsion aloqalarning samaradorligini aniqlash uchun muallif tomonidan Integratsion Aloqalar Samaradorligi Indeksi (IASI) ishlab chiqildi. Mazkur indeks iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy bloklar bo'yicha baholash imkonini berdi hamda klasterlar faoliyatini qiyosiy tahlil qilish uchun uslubiy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot natijalari statistik guruhlash, qiyosiy tahlil va ekspert baholash usullari yordamida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy qurilish klasteri - bu ma'lum hududda joylashgan va qurilish mahsuloti yoki xizmatini yaratishda birgalikda ishtirok etuvchi kompaniyalar, ta'minotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va davlat tuzilmalarining integrallashgan tizimi. Mazkur tizimda kichik biznes subyektlari bir necha muhim rol o'ynaydi:

- Ixtisoslashgan subpudratchilik xizmatlari ko'rsatuvchi kichik kompaniyalar;
- Qurilish materiallari va uskunalari ta'minotchilari;
- Loyihalash, me'morchilik va muhandislik xizmatlari korxonalarini;
- Texnik nazorat va sertifikatlash bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlar;
- Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish muassasalari.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan klasterlarda kichik biznes subyektlari umumiy klaster a'zolarining 68-74 foizini tashkil etadi, biroq ularning umumiy klaster

aylanmasidagi ulushi 31-38 foiz darajasida shakllangan. Ushbu nisbat kichik biznes subyektlarining klaster tarkibida son jihatidan yetakchi o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularning iqtisodiy salohiyatini yanada kengaytirish va klaster aylanmasidagi ulushini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini ham namoyon etadi.

Qurilish klasterlarida integratsion aloqalar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

1-jadval

Qurilish klasterlarida integratsion aloqalar tasnifi¹

Aloqa turi	Ta‘rifi	Kichik biznes ishtiroki	Samaradorlik darajasi
Vertikal integratsiya	Yirik pudratchi va subpudratchi o‘rtasidagi aloqa	Yuqori (75-85%)	O‘rtacha
Gorizontal integratsiya	Bir darajadagi kichik firmalar o‘rtasidagi hamkorlik	O‘rta (45-60%)	Yuqori
Diagonal integratsiya	Turli soha va darajadagi subyektlar aloqasi	Past (20-35%)	Potensial yuqori
Axborot almashinuvi	Texnologiya va tajriba almashish tarmoqlari	O‘rta (50-65%)	Yuqori
Moliyaviy kooperatsiya	Birgalikda kreditlash va kafolat berish	Past (15-25%)	Juda yuqori

Qurilish klasterlari faoliyatini o‘rganish asosida shakllantirilgan ma‘lumotlar tahlili qurilish klasterlarida eng keng tarqalgan integratsiya shakli vertikal integratsiya ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu yo‘nalishda kichik biznes subyektlarining ishtiroki nisbatan yuqori darajada shakllangan bo‘lib, yirik pudratchilar va subpudratchilar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari qurilish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, gorizontal integratsiya va axborot almashinuvi mexanizmlari samaradorlik nuqtai nazaridan yuqori natijalarni ta‘minlayotgani aniqlandi. Moliyaviy kooperatsiya hamda diagonal integratsiya aloqalari hozirgi bosqichda nisbatan kam rivojlangan bo‘lsa-da, ularning klaster faoliyati samaradorligini oshirish va ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish salohiyati yuqori ekani kuzatildi. Ushbu natijalar qurilish klasterlarida institutsional, moliyaviy va axborot hamkorligi mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Integratsion aloqalar samaradorligini kompleks baholash maqsadida uchta asosiy blokdan iborat ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi.

Birinchi blok - iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari:

- Klaster ichki aylanmasining o‘shish sur‘ati (KAO) - klaster subyektlari o‘rtasidagi savdo hajmining yillik o‘shish darajasini ifodalaydi;
- Xarajatlarni tejash koeffitsiyenti (XTK) - klaster a‘zoli natijasida erishilgan tejamkorlik ulushini tavsiflaydi;
- Integratsion aloqalar rentabelligi (IAR) - hamkorlik natijasida shakllangan qo‘shimcha iqtisodiy samara va foyda hajmini aks ettiradi.

¹ Muallif ishlanmasi

Ikkinchi blok - tashkiliy samaradorlik ko'rsatkichlari:

- Hamkorlik davomlilikgi indeksi (HDI) - klaster ichida uzoq muddatli va barqaror hamkorlik aloqalariga ega subyektlar ulushini ifodalaydi;
- Axborot almashinuvi intensivligi (AAI) - ishtirokchilar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy kommunikatsiya darajasini tavsiflaydi;
- Zanjir ishonchliligi koeffitsiyenti (ZIK) - ta'minot va hamkorlik zanjirlarining uzluksizlik darajasini baholaydi.

Uchinchi blok - ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari:

- Ish o'rinlari multiplikatori (IOM) - klaster faoliyatining yangi ish o'rinlari yaratishdagi ta'sirini ifodalaydi;
- Malaka oshirish indeksi (MOI) - bilim almashinuvi va kasbiy rivojlanish dasturlaridan foydalangan ishtirokchilar ulushini ko'rsatadi;
- Mintaqaviy iqtisodiyotga hissa indeksi (MIHI) - klasterning hududiy iqtisodiy rivojlanish va yalpi hududiy mahsulotga qo'shgan hissasini tavsiflaydi.

Tadqiqotda integratsion aloqalar samaradorligini baholash uchun Integratsion Aloqalar Samaradorligi Indeksi (IASI) ishlab chiqildi va quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$IASI = \alpha \times (KAO \times XTK) + \beta \times (HDI \times AAI) + \gamma \times IOM$$

bu yerda:

$$\alpha = 0,45; \beta = 0,30; \gamma = 0,25$$

Mazkur og'irlik koeffitsiyentlari 47 nafar sanoat mutaxassisi ishtirokida o'tkazilgan ekspert so'rovi natijalari asosida aniqlandi. Ko'rsatkichlarning ulushi qurilish sohasining kapital sig'imi, mehnat talabchanligi va integratsion jarayonlarning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda belgilandi.

2-jadval

O'rganilgan qurilish klasterlarida kichik biznes faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari 2022-2025 yillar¹

Ko'rsatkich	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	O'sish, foizda
Kichik biznes subyektlari soni	1 248	1 517	1 843	2 156	72,8
Ularning klaster aylanmasidagi ulushi, foizda	28,4	31,2	34,7	38,1	9,7 p.p.
O'rtacha subpudrat shartnoma qiymati, mln. so'm	145	187	234	312	115,2
Hamkorlik davomlilikgi, o'rtacha yil	1,8	2,1	2,6	3,2	77,8
Xarajat tejamkorligi, foizda	8,2	10,4	12,1	14,3	6,1 p.p.
Yangi ish o'rinlari yaratish	3 412	4 231	5 187	6 043	77,1

Qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlarining integratsion jarayonlardagi ishtiroki hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash maqsadida 2022-2025-yillar kesimida asosiy faoliyat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil davomida klaster tarkibidagi kichik biznes subyektlari soni, ularning umumiy aylanmadagi

¹ Muallif ishlanmasi

ulushi, subpudrat shartnomalari hajmi, hamkorlik davomiyligi, xarajatlar tejamkorligi va yaratilgan yangi ish o‘rinlari kabi muhim indikatorlardan foydalanildi. Olingan natijalar kichik biznes va yirik korxonalar o‘rtasidagi integratsion aloqalar izchil rivojlanib borayotganini hamda ushbu hamkorlik qurilish klasterlari iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, tahlil natijalari integratsion munosabatlarni yanada rivojlantirish orqali klasterlar faoliyatining raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqladi.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022-2025 yillar davomida hududiy qurilish klasterlarida kichik biznesning ishtirok ko‘rsatkichlari barqaror ijobiy dinamika ko‘rsatgan. Ayniqsa, o‘rtacha subpudrat shartnoma qiymati 2,15 barobar oshgani kichik korxonalarining iqtisodiy quvvati mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Taklif etilgan metodologiya asosida o‘rganilgan klasterlar bo‘yicha IASI indeksi hisoblab chiqildi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

3-jadval
O‘rganilgan klasterlar bo‘yicha IASI indeksining qiymatlari 2025-yil¹

Klaster (viloyat)	Iqtisodiy blok	Tashkiliy blok	Ijtimoiy blok	IASI	Baho
Toshkent shahri №1	0,72	0,68	0,71	0,704	Yuqori
Toshkent shahri №2	0,65	0,61	0,67	0,643	O‘rta-yuqori
Toshkent vil. №1	0,58	0,54	0,62	0,576	O‘rta
Samarqand vil. №1	0,61	0,57	0,65	0,604	O‘rta-yuqori
Samarqand vil. №2	0,52	0,48	0,58	0,524	O‘rta
Farg‘ona vil. №1	0,64	0,60	0,66	0,632	O‘rta-yuqori
O‘rtacha	0,62	0,58	0,65	0,614	O‘rta-yuqori

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilgan klasterlarning ko‘pchiligida IASI indeksi 0,5-0,7 oralig‘ida, ya’ni o‘rta va o‘rta-yuqori darajada joylashgan. Bu ko‘rsatkich integratsion aloqalarning muayyan darajada samaradorligini ifoda etsa-da, potensial imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmasligini ham bildiradi.

So‘rov natijalari kichik biznes subyektlari quyidagi to‘siqlarni eng muhim deb topildi.(4-jadval) So‘rovnoma natijalari kichik biznes subyektlarining klaster tizimiga integratsiyalashuvida bir qator muhim to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Respondentlarning 78,5 foizi moliyaviy resurslar yetishmasligini asosiy muammo sifatida qayd etgan bo‘lib, ushbu omilning ahamiyatlilik darajasi 4,6 ballni tashkil etgan. Bu kichik biznes korxonalarining investitsiya va aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, respondentlarning 71,2 foizi tenderlar va loyihalar bo‘yicha axborot asimmetriyasini muhim to‘siq deb baholagan, uning ahamiyatlilik darajasi 4,4 ballni tashkil etgan. Yirik kompaniyalar bilan hisob-kitob va to‘lov muddatlarining cho‘zilishi 63,4 foiz respondent tomonidan muhim omil sifatida qayd etilib, 4,3 ball bilan baholangan.

¹ Muallif ishlanmasi

4-jadval
Kichik biznesning klaster integratsiyasidagi asosiy to‘siqlari¹ (so‘rov natijalari, n=186)

To‘siq turi	Javob berganlar ulushi, foizda	Ahamiyatlilik darajasi (1-5)
Moliyaviy resurslar yetishmasligi	78,5	4,6
Axborot asimmetriyasi (tender, loyiha ma’lumotlari)	71,2	4,4
Sertifikat va litsenziya talablarining murakkabligi	65,8	4,1
Yirik kompaniyalar bilan to‘lov muddati muammolari	63,4	4,3
Texnologik imkoniyatlarning yetishmasligi	57,6	3,9
Malakali kadrlar taqchilligi	54,3	3,8
Raqobat muhitining noshaffofligi	48,9	3,6

Sertifikat va litsenziya talablarining murakkabligi esa 65,8 foiz respondent tomonidan e’tirof etilib, uning ahamiyatlilik darajasi 4,1 ballni tashkil qilgan. Bundan tashqari, texnologik imkoniyatlarning yetishmasligi 57,6 foiz respondent tomonidan qayd etilib, 3,9 ball bilan baholangan. Malakali kadrlar taqchilligi 54,3 foiz respondent tomonidan muhim to‘siq sifatida ko‘rsatilgan va 3,8 ballga teng baholangan. Raqobat muhitining yetarli darajada shaffof emasligi esa 48,9 foiz respondent tomonidan qayd etilib, 3,6 ball bilan baholangan. Umuman olganda, natijalar kichik biznesning klaster integratsiyasini rivojlantirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, axborot ochiqligini oshirish hamda institutsional va texnologik to‘siqlarni bartaraf etish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot hududiy qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlarining ishtiroki hamda integratsion aloqalar samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratildi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida qurilish klasterlarida kichik biznesning iqtisodiy faolligi, hamkorlik darajasi va integratsion munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan qurilish klasterlarida kichik biznes subyektlari son jihatidan yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, ularning klaster aylanmasidagi ulushi bosqichma-bosqich ortib borayotgan bo‘lsa-da, mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari saqlanib qolmoqda. Bu holat kichik biznes va yirik korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyani chuqurlashtirish hamda iqtisodiy faollikni kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan Integratsion Aloqalar Samaradorligi Indeksi (IASI) iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni yagona tizim asosida baholash imkonini berdi. Hisob-kitob natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan klasterlarda IASI indeksining o‘rtacha qiymati 0,614 ni tashkil etib, integratsion aloqalarning o‘rta-

¹ Muallif ishlanmasi

yuqori samaradorlik darajasiga ega ekanligini tasdiqladi. Mazkur natija qurilish klasterlarida hamkorlik mexanizmlarining shakllanib borayotganini va ularni yanada takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlillar kichik biznesning klaster tizimidagi faol ishtirokini kengaytirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash, axborot almashinuvi, texnologik modernizatsiya va institutsional hamkorlik muhim omillar ekanligini tasdiqladi. Integratsion aloqalarning mustahkamlanishi xarajatlar tejamkorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, subpudrat munosabatlarini rivojlantirish va hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini rivojlantirish, hududiy klasterlar faoliyatini takomillashtirish hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Klaster axborot platformalarini rivojlantirish. Klaster ishtirokchilari uchun yagona raqamli platformalarni joriy etish tenderlar, loyihalar, texnik talablar va hamkorlik imkoniyatlari bo'yicha axborot almashinuvini tezlashtiradi hamda biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshiradi.

2. Klaster moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish. Birgalikdagi kafolat fondlari, lizing dasturlari va maxsus moliyaviy instrumentlarni joriy etish kichik biznes subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi hamda yirik loyihalarda ishtirok etish salohiyatini oshiradi.

3. Subpudrat munosabatlarini takomillashtirish. Yirik pudratchilar va kichik korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni standartlashtirish, shaffof shartnoma mexanizmlarini qo'llash va to'lov intizomini mustahkamlash klaster ichidagi iqtisodiy aloqalarni yanada barqarorlashtiradi.

4. Innovatsion va texnologik hamkorlikni rivojlantirish. Klasterlar tarkibida innovatsion markazlar, tajriba maydonchalari va amaliy tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etish zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

5. Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish. Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali qurilish sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlari kengayadi.

6. Klaster samaradorligini muntazam monitoring qilish. IASI indeksini yillik asosda hisoblash va natijalarni tahlil qilish klasterlar faoliyatini baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari hududiy qurilish klasterlarida kichik biznesning faol ishtiroki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va hududlar raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Integratsion aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv qurilish sanoatining barqaror rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va mintaqaviy iqtisodiy o'sish sur'atlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990. - 855 p.
3. Schmitz H. Collective efficiency and increasing returns // Cambridge Journal of Economics. - 1999. - Vol. 23, No. 4. - P. 465-483.
4. Vogl A., Steane P. Collaborative ventures in supply chains - an Australian construction industry case study // Construction Management and Economics. - 2006. - Vol. 24, No. 2. - P. 203-216.
5. Ershova M., Khalilova S. Construction cluster formation in post-Soviet economies // Journal of Construction Engineering and Management. - 2019. - Vol. 145, No. 8. - P. 1-12.
6. Ergashev I.X. O‘zbekistonda qurilish sohasini klasterlashtirish: muammolar va istiqbollar // Qurilish iqtisodiyoti. - 2021. - №3. - B. 45-58.
7. Yusupov R., Nazarov A. Hududiy klasterlar va iqtisodiy rivojlanish // TAQUI ilmiy-texnik jurnali. - 2020. - №2. - B. 112-124.
8. Rashidova N.K. Qurilish klasterlarida korporativ boshqaruv: monografiya. - Toshkent: TAQUI nashriyoti, 2022. - 186 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Qurilish sohasi statistikasi: 2024 yil ma’lumotlari. - stat.uz (murojaat: 2024 yil dekabr).
10. Enright M.J. Regional clusters: what we know and what we should know // Innovation Clusters and Interregional Competition. - Springer, Berlin, 2003. - P. 99-129.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**